

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA PEDAGOGIKALIK KONFLIKTLARNI YECHISHDA O'QITUVCHINING KOMPETENTLIGI

Tuzelboyeva Dinora Rashid qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI Magistratura bo'limi

Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15251027>

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konfliktlarni yechish va o'zaro hurmatni shakllantirish.

Kalit so'zlar: maktab, muammoli xulq-atvor, o'qituvchi mahorati.

TEACHER COMPETENCE IN RESOLVING PEDAGOGICAL CONFLICTS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS

Abstract. This article discusses the issue of resolving conflicts between teachers and students in general secondary schools and building mutual respect.

Keywords: school, problem behavior, teacher skills.

КОМПЕТЕНТНОСТЬ УЧИТЕЛЯ В РАЗРЕШЕНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы разрешения конфликтов между учителями и учениками и формирования взаимного уважения в общеобразовательных средних школах.

Ключевые слова: школа, проблемное поведение, навыки учителя.

Bilamizki, maktab hayotida o'quvchilar har tomonlama rivojlanib ulg'ayishadi: ham jisman, ham ruhan, ham manan. Ularni bilim va tarbiyasi uchun javobgar bo'lgan shaxslar hisoblangan o'qituvchilar esa ularga o'z farzandlarini tarbiyalagandek, bor bilim va g'ayratlarini namoyon etishadi. Lekin shunday damlar bo'ladiki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida biz xoxlamagam tarzda konfliktli vaziyatlar sodir bo'ladi. Bu esa o'qituvchidan vaziyatga to'g'ri baho berishni, bu ziddiyatlarni bart'araf etish shakllari, metodikasini puxta egallashni talab etadi.

Muammoli xulq-atvorining motivlari. Tartibni buzgan o'quvchi bu xatti-harakat noto'g'ri ekanligini anglasa ham, ammo u o'z xulq-atvorining motivini tushunmaydi.

Har bir o'quvchi uchun bu xatti-harakatning turli sabab maqsadlari mavjud. Pedagoglar esa bu motivlarning qanday bo'lishiga qaramay ularga ta'sir etish usullarini topishlari lozim.

Agar pedagoglar xulq-atvorining buzilish sabablarini aniqlashga qodir bo'lsalar, u holda o'quvchi bilan konstruktiv munosabatlarini o'rnatish oladilar, samarasiz muloqat samarali muloqotga aylanishi mumkin. Bunda strategiyani tanlash qadamma-qadam muammoning yechimini topish imkonini beradi.

Bunday vaziyatga pedagogik aralashuv natijasida shunday sharoitlar yaratiladiki, bolalar o'z intizomlarini to'g'irlash borasidagi ma'lum qaror qabul qiladilar. O'quvchilarning xulq borasidagi tanlovi, uning yomon xulq-atvorining sababi o'qituvchi tomonidan aniqlanishi va nazoratga olinishiga bog'liq. Har bir pedagog o'quvchilargaga o'zini maktab hayotining to'liq ishtirokchisi ekanligini his qilishga yordam berishi lozim. Bu borada pedagogga mazkur muammoga individual yondashish bo'yicha amaliy reja tuzish tavsiya etiladi. Bu reja o'quvchining xulq-atvoriga samarali ta'sir etishdan iboratdir. Rejani tuzishda o'qituvchi o'zining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqadi. Albatta bunda vaqt va vaziyatni nazorat qilish talab etiladi, lekin natijalar o'zini oqlaydi. O'qituvchining qarashlari, ya'ni ustanovkasi o'zgaradi, xavotirlik yo'qoladi, avvallari muammoli o'quvchidan faqatgina yomon xulq-atvorni kutgan bo'lsa, endi yutuqqa erishishga ishonchi komil bo'ladi.

Ushbu rejani quyidagilar tashkil etishi mumkin:

- yomon xulq – atvorning sababini aniqlash
- uni bartaraf etish usullarini tanlash
- o'quvchini qo'llab – quvvatlashning kelgusi taktikasini ishlab chiqish
- muammoni hal etishga ota onalarini va pedagoglarni jalb etish.

Muammoni beta'raf izlash barcha o'qituvchilarga o'quvchining xulq – atvorini izlashda xolislik yetishmaydi. Intizomni buzganda o'quvchi, o'qituvchi nimalar qilishi kerakligini hissiyotga berilmay qisqa fursat nima qilish kerakligin bilishi lozim. U juda yomon bola, uning fikri tarqoq, parishonxotir, uni boshqarish juda qiyin kabi izohlar o'quvchiga berilgan noto'g'ri bahosi hisoblanadi. Bu izohlar o'quvchining xulq-atvoriga berilgan baho bo'lmay, balki ayrim o'qituvchilarning o'quvchilar xulq-atvorini tuzatishda natijaga erisha olmaganligini bildiradi.

Lekin bitta o'quvchi hamma o'qituvchilarga nisbatan ham bunday xatti-harakatni amalga oshirmaydi. Atrofdagilarning o'ziga e'tiborini xohlaydigan o'quvchilar o'zlarini xuddi haqiqiy artistlarday tutadilar va ko'p hollarda bunday xulq-atvorning sababi shu bo'ladi. Shunday bolalar borki, ular yoki butun sinfni jonlantirishlari mumkin yoki aksincha barcha ishlarni juda sekinlikda amalga oshiradilar. Bunday bolalarni barcha ishlarda faol bo'ladiganlarga nisbatan tuzatish qiyinroq kechadi, chunki ular intizomni deyarli buzmaydilar.

E'tiborga bo'lgan ehtiyoj psixologik jarayon bo'lib, ovqat va suvdek zarur. Uydagi e'tiborning kamligi uning maktabdagi xul – atvoriga ta'sir etadi. Bunday bolalar ijobiy muloqot qilishni bilmaydilar. Pedagogdan bunday o'quvchilarga imkon qadar ko'proq e'tibor qaratish talab etiladi. Ular o'zlarini ko'rsatish uchun turli usullarda foydalanadilar, ya'ni barcha ishlarning aksini qilishga, masalan, nazorat ishini hammadan keyin bajaradilar yoki umuman topshirmaydilar sinf oldida o'qituvchining obro'siga putur yetqazadigan so'zlarni aytadilar.

Shunday o'quvchilar ham bor bir qaraganda juda intizomli, xushmomila bo'lib ko'rinadilar, lekin o'zlari xohlagan ishni qiladilar, diqqatlarining tarqoqligi va xotiraning pastligi, jismoniy holatlari bilan o'zlarini oqlaydilar. Ular o'zlaridan kattalarga bo'ysunishga tartib qoidalarga rioya qilishni to'liq anglab yetmaydilar. Agar o'qituvchi bunday o'quvchidagi xarakterni tuzatishga erishsa, bunday bolalardan shaxsiy liderlar va mustaqil fikirlash qobiliyatlari shakillanadi. Ular mustaqil fikirlashni, qaror qabul qilishni, o'z hayotlarini nazorat qilishni hohlaydilar. Murakkabligi tomoni shundaki, bunday tomonlarni ular boshqalarga ham nisbatan qo'llashga, ularni boshqarishga ham harakar qiladilar. O'quvchi intizomini buzganda aynan qanday hatti – harakatni amalga oshirishi, qanday vaziyatlarda buni qilayotganini qayd etish va nima uchun bunday qilayotganini aniqlash muammoli xulq – atvorni xolisona izohlash imkonini beradi. E'tibor va birinchilikni talab qilayotgan bolalar o'ta yoqimli va xushmomila bo'lishadi.

Nojo'ya xatti–harakatlarni qasd olish maqsadida amalga oshiradiga o'quvchilar esa agressiv, xo'mraygan, jahldor bo'ladilar. O'zingizning salbiy his – tuyg'ularingizni nazorat qilingan. O'quvchi bizning ayni vaziyatda unga jahl qilsak, g'azabimizni bildirsak, bunga javoban o'zini qasdma – qasd yomon tutishi mumkin. O'quvchilarning aybini xatti – harakatlarini butun sinf oldida emas, balki darsdan so'ng bir o'zi bilan muhokama qiling.

O'quvchiga do'q – po'pisa qilish, baqirish, uni ayiblash kabi agressivlikni namoyon qilmang. Ular bu hatti – harakatni sizga nisbatan ham, qo'llashi mumkin deb tushinadi.

O'quvchilar odatda o'qituvchining barcha aytganini o'zlari hohlagandek, ya'ni aftlarini bujmaytirib, shoshmasdan, bajaradilar. Agar o'qituvchi bunga ahamiyat bermasa, o'quvchi o'z o'zidan qoidalarga bo'ysunishi mumkin, ular o'rtasidagi qarama– qarshilik paydo bo'lmaydi.

Ko'p hollarda bolaning namoyish korona xulq – atvorini to'xtatishning eng samarali usuli – unga ahamiyat bermaslik. Ko'zlar orqali aloqa o'rnatish. O'quvchiga razm solib qarab turing, ko'z qarashingiz orqali o'quvchi sizni uning xatti – harakatidan norozi ekanligingizni tushunadi. Hech qanday qarashlarsiz va so'zlarsiz uning yoniga kelib turing. Bolalar nimanidir noto'g'ri qilayotganlarini tushunadilar va ularni yoniga yaqinlashishingiz zahotiyoq nojo'ya harakatlarini to'xtatadilar. Dars davomida darsni buzmoqchi bo'lgan bolani dars mavzusiga bog'lab aytib o'ting. U tinchlanish kerakligini shu zahoti tushunadi.

Yozma tarzda ogohlantiring. Ba'zida, hoziroq bas qiling deb baqirgiz keladi. Lekin buni boshqa tarzda aytish mumkin, Lola, men darsni tushuntirayotganimda seni gaplashib o'tirishing mening hayolimni chalg'itadi, iltimos gaplashma, deb murosaga kelish o'z aro konfliktni keltirib chiqarmaydi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konfliktni oldini olish yoki uni yuzga kelganda to'g'ri barta'raf etish bularning barchasi o'qituvchiga bog'liq.

O'qituvchi o'z mahoratini ishga solgan holda oqilona holda yechim chiqarishi lozim.

O'qituvchi shu qobilyati bilan ham o'qituvchi hisoblanadi.

REFERENCES

1. Berdiyev G. O'quvchilarda shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari.// Xalq ta'limi, №6,1998, B. 61-65.
2. Jo'rayev R. Q., Safarova R. G'., Ibragimov X. I., Musayev U. Q. Pedagogika fani konsepsiyasi.// Xalq ta'limi, 2004, №5, B. 8-31.
3. Axmedova M. Pedagogik konfliktologiya. T.,2020.
4. Наймушина А. Г. Педагогическая конфликтология: методические указания- Тюмен: ТГНУ. 2013.